

UDK: 372.851

SHARQ PEDAGOGIKASI TARIXIDA QIZLARNI IJTIMOIIY HAYOTGA TAYYORLASH VA TARBIYALASH MASALALARI

Xakimova Nargiza Bahodirovna

Assistent-o'qituvchi

*Andijon davlat pedagogika instituti, "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası o'qituvchisi
+998 99-033-42-07*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sharq qadriyatlarida qizlar tarbiyasining tarixiy-pedagogik asoslari masalasi tahlil qilinadi. Tarixiy manbalar, pedagogik qarashlar hamda madaniy merosda qizlar tarbiyasi bo'yicha shakllangan an'analarning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Maqolada qadimgi davr Sharq mutafakkirlari asarlaridagi pedagogik g'oyalar, milliy qadriyatlarning tarbiya tizimiga ta'siri hamda zamonaviy sharoitda ushbu an'analarning ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Sharq qadriyatlari, qizlar tarbiyasi, tarixiy-pedagogik asoslar, milliy an'ana, ma'naviyat, axloqiy tarbiya, pedagogik meros.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается проблема историко-педагогических основ воспитания девушек в системе восточных ценностей. Анализируются исторические источники, педагогические взгляды, а также особенности традиций, сложившихся в культурном наследии Востока в отношении воспитания девочек. Особое внимание уделено педагогическим идеям мыслителей Востока, влиянию национальных ценностей на систему воспитания и значению этих традиций в современных условиях.*

Ключевые слова: *Восточные ценности, воспитание девушек, историко-педагогические основы, национальные традиции, духовность, нравственное воспитание, педагогическое наследие.*

Annotation: *This article examines the historical and pedagogical foundations of girls' education within the framework of Eastern values. It analyzes historical sources, pedagogical perspectives, and distinctive features of traditions formed in the cultural heritage of the East regarding the upbringing of girls. Special attention is given to the pedagogical ideas of Eastern thinkers, the impact of national values on the educational system, and the relevance of these traditions in modern society.*

Key words: *Eastern values, girls' upbringing, historical and pedagogical foundations, national traditions, spirituality, moral education, pedagogical heritage.*





Sharq pedagogik tafakkuri tarixida qizlar tarbiyasi masalasi ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Qadimiy davrlardan buyon bu jarayon nafaqat oilaviy-ma'naviy qadriyatlar, balki ta'lim tizimining ham muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, qizlar tarbiyasi doimo ikki asosiy maqsadga xizmat qilgan: birinchidan, milliy va diniy an'analarni saqlash hamda uzluksiz davom ettirish; ikkinchidan, jamiyat taraqqiyoti uchun intellektual va axloqan yetuk shaxsni shakllantirish.

Globalashuv sharoitida mazkur masalaga bo'lgan yondashuv yangi ilmiy-pedagogik asoslarni talab etmoqda. Bugungi kunda qizlar tarbiyasi milliy meros va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini uyg'unlashtirgan holda, gender tengligi, ijtimoiy faollik va shaxsiy rivojlanish kabi ustuvor tamoyillarga asoslanishi lozim. Shu bois ushbu mavzuni tarixiy-pedagogik kontekstda tahlil qilish, uning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Qizlar tarbiyasi masalasi Sharq sivilizatsiyasi tarixida muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida doimo alohida e'tibor markazida bo'lgan. Qadimdan buyon Sharq xalqlari oilaviy hayot, ma'naviyat, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy vazifalarni avloddan-avlodga o'tkazishda qiz farzand tarbiyasiga ustuvor o'rin berib kelgan[1]. Tarbiya jarayoni nafaqat oilaviy, balki diniy, madaniy va ta'limiy institutlar faoliyati orqali ham amalga oshgan bo'lib, u jamiyatning umumiy qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Sharq pedagogik tafakkurida qizlar tarbiyasi ikki asosiy yo'nalishda — ma'naviy-axloqiy yetuklikni shakllantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlash orqali amalga oshirilgan. Bunda oila birlamchi tarbiya muassasasi bo'lib xizmat qilgan, madrasalar, xonadon maktablari va ustoz-shogird tizimi esa ilmiy va hunar o'rgatish vazifasini bajargan.

Zamonaviy davrda esa globalizatsiya, ilm-fan taraqqiyoti va axborot texnologiyalarining keng tarqalishi qizlar tarbiyasiga yangi mazmun kiritmoqda. Bir tomondan, milliy va diniy qadriyatlarni asrab-avaylash zarurati saqlanib qolsa, boshqa tomondan, gender tengligi, ayollarning ijtimoiy faolligi va kasbiy rivojlanishini ta'minlash masalalari dolzarblashmoqda. Shu bois, Sharq madaniyatida qizlar tarbiyasining tarixiy-pedagogik asoslarini o'rganish, uning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish va zamonaviy sharoitda tatbiq etish yo'llarini aniqlash ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, Sharq uyg'onish davrida ma'naviy-ma'rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo'lgan edi. Shu sababli ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Sharqqa xos bo'lgan insonning axloqiy, ruhiy kamoloti, oily darajadagi yuksalish muammosi yetakchi g'oya bo'lgan. Insoniylik, insonni ulug'lash g'oyasi





ta'lim-tarbiyaga oid yaratilgan asarlarning asosiy o'zagi hisoblangan. Shu asosida Sharq mutafakkirlari jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan boshlanib, Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" va boshqa allomalarning ta'limiy-axloqiy asarlarida insonning ma'naviy kamolga yetishida yuksak axloqqa ega bo'lishi ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin degan g'oya ilgari surilgan[2]. O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, vatan, xalq istiqboli, farovon hayot, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga munosabati haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berishgan.

Sharq qadriyatlari asrlar davomida xalqning diniy e'tiqodi, ma'naviy qarashlari, iqtisodiy hayoti va ijtimoiy tuzumining mahsuli sifatida shakllangan. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, qadriyatlar jamiyatning tarbiyaviy idealini belgilab beradi, chunki ular yosh avlodga qanday axloqiy, madaniy va ijtimoiy me'yorlar singdirilishini ko'rsatadi. Qizlar tarbiyasida qadriyatlarning o'rni o'ziga xos. Sharq an'analari bo'yicha, qiz farzand nafaqat oilaning izzati, balki kelajak avlodning tarbiyachisi sifatida ko'rilgan. Shu boisdan qizlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi doimo oila, mahalla, diniy institutlar va ta'lim muassasalarining e'tiborida bo'lgan. Tarixiy jihatdan Sharq xalqlarida qadriyatlar uch qatlamda shakllangan: diniy-ma'rifiy qadriyatlar, urfdan kelib chiqqan ma'naviy-axloqiy me'yorlar va davlat siyosati asosidagi ta'limiy talablar. Bu qatlamlarning uyg'unlashuvi qizlar tarbiyasining mazmunini belgilagan[3].

Sharq sivilizatsiyasining eng qadimgi o'choqlari — Mesopotamiya, Buxoro vohasi, Xorazm, Hind vodiysi va Xitoy hududlarida qizlar tarbiyasi asosan oilaviy doirada amalga oshirilgan. Qiz bolalar uy yumushlari, hunarmandchilik va uy bekasi sifatidagi ko'nikmalarga o'rgatilgan, ularning tarbiyasi diniy marosimlar va mahalliy urf-odatlar bilan chambarchas bog'langan. Qadimgi Xitoyda Konfutsiy ta'limoti asosida qizlardan itoatkorlik, kamtarlik va oilaviy sadoqat talab qilingan. Hindistonda esa "Manu qonunlari"da ayolning ota, er va o'g'liga bo'lgan bo'ysunishi tarbiya me'yorlari sifatida belgilangan. Movarounnahr hududida esa Zardushtiylik ta'limotida qizlarning poklik, mehnatsevarlik va oilaviy mas'uliyat ruhida tarbiyasi targ'ib etilgan[4].

IX–XV asrlar Sharq madaniyati va pedagogik tafakkurining yuksalish davri bo'ldi. Bu davrda Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy kabi allomalar tarbiya masalalariga ilmiy yondashgan. Forobiy "Fozil shahar" konsepsiyasida jamiyatning farovonligi fuqarolarning ma'naviy yetukligiga bog'liqligini ta'kidlab, qizlar tarbiyasida ham aql, axloq va bilimning uyg'unligini muhim deb biladi. Ibn Sino esa "Tib qonunlari" va boshqa asarlarida qizlarni jismoniy sog'lom, estetik didli va ma'rifatli qilib tarbiyalash zarurligini yozadi. Navoiy esa o'z asarlarida qiz farzandni ilmu odob bilan



qurollantirishni kelajak avlodni asrash deb hisoblagan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlariga G'arb ta'lim tizimi unsurlari kirib kela boshladi. Qizlar uchun yangi usuldagi maktablar ochildi, ular matematika, til, tarix kabi fanlardan ta'lim ola boshlashdi. Shu bilan birga, ayrim konservativ doiralar buni an'anaviy qadriyatlarga tahdid sifatida qabul qilgan[5].

Mustamlaka davrida qizlar tarbiyasida milliy ruhni saqlash masalasi dolzarblashdi. O'zbek jadidchilari — Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar qizlarni o'qitish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish tarafdori bo'lishdi. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida qizlarni bilimdan mahrum qilish jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilishi haqida ogohlantirgan. Qizlar tarbiyasida gender xususiyatlari deganda, ularning ijtimoiy roli, oiladagi o'rni va jamiyatdagi vazifalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan tarbiya mazmuni tushuniladi. Sharqda tarixan ayolning uchta asosiy vazifasi belgilangan:

1. Oila boshqaruvchisi sifatida — uy xo'jaligi, bolalar tarbiyasi, oilaviy an'analarning saqlanishi.
2. Ma'naviy tarbiyachi sifatida — urf-odatlar, axloqiy me'yorlar va diniy qadriyatlarni avlodga yetkazish.
3. Ijtimoiy hayot ishtirokchisi sifatida — mehnat, jamiyat faoliyati, madaniy tadbirlarda qatnashish[6].

An'anaviy tarbiyada qizlarda iffat, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi sifatlar yetakchi o'rinda bo'lgan. Shu bilan birga, zamonaviy davrda mustaqil fikrlash, kasbiy tayyorgarlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlar ham qizlar tarbiyasining ajralmas qismiga aylangan. XXI asrda globallashuv, axborot texnologiyalari rivoji va madaniy integratsiya jarayonlari qizlar tarbiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, internet va ommaviy axborot vositalari orqali turli madaniyatlar o'rtasida axborot almashinuvi kuchaydi. Bu qizlarga dunyoqarashni kengaytirish imkonini bersa-da, boshqa tomondan, milliy va diniy qadriyatlarning yo'qolish xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Sharq mamlakatlarida hozirgi ta'lim siyosati qizlar tarbiyasida quyidagi vazifalarni belgilab bermoqda:

- Milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy bilim berish;
- Gender tengligini ta'minlash;
- Qizlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish;
- Ma'naviy-axloqiy tarbiya va fuqarolik ongini rivojlantirish.

An'anaviy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim tizimida qo'llashning samarali usullaridan biri — integrativ yondashuv. Masalan, maktablarda milliy odob-axloq darslarini zamonaviy psixologiya, etika va madaniyatshunoslik bilan uyg'unlashtirish



mumkin. Shu tarzda qizlar tarbiyasida Sharqning boy madaniy merosi saqlanadi va zamonaviy talablarga moslashtiriladi[7].

Sharq sivilizatsiyasi tarixida qizlar tarbiyasi masalasi nafaqat pedagogik jarayonning bir bo'lagi, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy barqarorligini belgilovchi strategik omil sifatida qaralgan. Tadqiqot davomida olingan tahlillar shuni ko'rsatadiki, qadimiy davrlardan to zamonaviy davrgacha bo'lgan jarayonda qizlar tarbiyasi shakl va mazmun jihatidan o'zgarib borgan bo'lsa-da, uning asosiy maqsadi — ma'naviy barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli, bilimli va axloqan yetuk insonni tarbiyalash — o'zgarmay qolgan.

Qizlar tarbiyasiga oid tarixiy-pedagogik yondashuvlar uchta asosiy bosqichda namoyon bo'ladi:

1. An'anaviy-ma'naviy bosqich — bu davrda tarbiya jarayoni asosan oilada va mahalla muhitida kechgan. Asosiy urg'u qizlarning oila doirasidagi vazifalarini bajarishga tayyorlash, ma'naviy poklikni saqlash va milliy urf-odatlariga sodiqlikda bo'lgan.

2. Ma'rifatparvarlik bosqichi — Sharq mutafakkirlarining ta'limiy qarashlari ta'sirida qizlar tarbiyasiga ilmiy bilim, tafakkur tarbiyasi va ijtimoiy faollik elementlari kirib kelgan. Bu davrda tarbiya jarayoni diniy-ma'rifiy mazmun bilan boyitilgan.

3. Zamonaviy-integratsion bosqich — globallashuv, texnologiyalar rivoji va gender tengligi g'oyalari asosida milliy qadriyatlarni saqlagan holda yangi pedagogik metodlar qo'llanilmoqda.

Sharq sivilizatsiyasining yirik madaniy markazlaridan biri bo'lgan So'g'd, Baqtriya va Xorazm hududlarida qizlar tarbiyasi masalasi yozma manbalardan oldin ham og'zaki an'analar orqali shakllanib kelgan. Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, miloddan avvalgi IV–III asrlarda uy-ro'zg'or ishlariga, hunarmandchilikka va ibodat marosimlariga oid mahoratni qizlarga bolalikdan o'rgatish an'ana bo'lgan. Xorazmda topilgan devoriy rasmlar va sopol buyumlar tasvirlarida yosh qizlarning diniy marosimlarda ishtirok etishi, bu esa ularning diniy-ma'naviy tarbiyaga erta jalb etilganini ko'rsatadi.

Ko'plab tadqiqotlarda Forobiy, Ibn Sino yoki Navoiy qarashlari keng o'rganilgan bo'lsa-da, kam tilga olinadigan yana bir manba – Burhoniddin Marg'inoniy asarlaridir. U o'zining "Hidoya" asarida qiz bolalarning diniy-huquqiy bilimlarini oilada berishning ahamiyatini ta'kidlab, bu jarayonni ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'laydi. Marg'inoniy nazarida, qizlar tarbiyasida nafaqat axloqiy poklik, balki mulkni boshqarish, iqtisodiy mustaqillik kabi ko'nikmalar ham o'rgatilishi lozim. Bu g'oya o'sha davr uchun juda ilg'or bo'lgan, chunki iqtisodiy bilimlar ko'pincha faqat erkaklarga berilgan. Sharq





tarixida ayollar, jumladan, yosh qizlarning musiqiy va badiiy faoliyatga jalb qilinishi ko'p hollarda san'atni ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ko'rish bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, Temuriylar davrida saroy maktablarida qizlarga nafaqat Qur'on qiroati va adabiy bilimlar, balki tanbur, dutor, chang kabi cholg'ularni chalish, miniatyura chizish san'ati ham o'rgatilgan. Samarqand va Hirot madrasalarida tashkil etilgan maxsus xonalar musiqiy mashg'ulotlar uchun ajratilgan bo'lib, bu qizlarning estetik didini rivojlantirishga xizmat qilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati qizlar tarbiyasiga yondashuvni keskin o'zgartirdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatchilar qizlar maktablarini ochib, dastlabki marta o'quv dasturiga matematika, geografiya va tabiatshunoslikni kiritishdi. Bu yangilik Sharqdagi an'anaviy "uy ta'limi" tizimidan farqli bo'lib, qizlarga keng dunyoqarash berish imkonini yaratdi. Behbudiy "Padarkush" dramasida savodsizlik oqibatlarini ochib bergan bo'lsa, Munavvarqori qizlar uchun maxsus alifbe darsliklarini tayyorladi.

Bugungi kunda Sharq davlatlarida, jumladan, O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarbayjon kabi mamlakatlarda qizlar tarbiyasiga oid strategiyalar gender tengligi, innovatsion ta'lim metodlari va raqamli savodxonlik bilan boyitilmoqda. YUNESKO va UN Women kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan loyihalar qizlarning STEM yo'nalishlarida (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) bilim olishini rag'batlantiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yil ichida O'zbekistonda qizlarning oliy ta'limdagi ulushi 15 foizdan 38 foizga oshgan.

Sharq jamiyatlarida oila qadimdan tarbiya jarayonining asosiy o'chog'i hisoblangan. Hozirgi kunda esa bu jarayonni mahalla va jamoat tashkilotlari ham faol qo'llab-quvvatlamoda. Masalan, "Ayollar daftari" tizimi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardagi qizlarning ta'lim olishi uchun grantlar ajratilmoqda. Bu hol Sharqdagi qadimiy "bir-birini qo'llash" an'anasining zamonaviy shakli sifatida namoyon bo'ladi. Sharq madaniyatida qizlar tarbiyasida axloqiy-ma'naviy fazilatlarini ustuvor qo'yish an'ana bo'lsa, G'arbda so'nggi asrlarda individualizm va shaxsiy erkinlikka ko'proq e'tibor qaratilgan. So'nggi yillarda esa bu ikki yondashuv o'zaro yaqinlashmoqda: Sharqda innovatsion va texnologik bilimlar ahamiyati ortsa, G'arbda axloqiy va madaniy tarbiya dasturlariga qiziqish kuchaymoqda.

An'anaviy tarbiya usullarini to'g'ridan-to'g'ri zamonaviy ta'lim tizimiga kiritish ba'zan qiyinchilik tug'diradi. Masalan, qadimiy marosimlar yoki urf-odatlarining ba'zilari bugungi zamon talablariga mos kelmasligi mumkin. Shu bois pedagoglar ularni moslashtirish, ya'ni qadriyatning asosiy mazmunini saqlab qolgan holda, uni zamonaviy metod va texnologiyalar orqali yetkazish yo'llarini ishlab chiqishlari lozim.





Bugungi kunda qizlar tarbiyasi bo'yicha olib borilayotgan ishlar shuni ko'rsatadiki, faqat tarixiy merosga tayanish yoki faqat zamonaviy yondashuvni qo'llash yetarli emas. Asosiy vazifa — bu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirishdir. Chunki qadriyatlarni inkor etish milliy identitetning zaiflashishiga olib keladi, zamonaviy yondashuvlardan voz kechish esa global rivojlanish jarayonlarida ortda qolish xavfini keltirib chiqaradi[8].

Milliy va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligi — qizlar tarbiyasi mazmuni milliy qadriyatlar asosida shakllanib, zamonaviy kompetensiyalar bilan boyitilishi kerak. Pedagogik jarayonda gender sezgirlik — ta'lim-tarbiyada qizlarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularning imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish — qizlarni zamonaviy media va raqamli platformalardan foydalana olishga, shu bilan birga zararli axborotdan himoyalanihga o'rgatish. Axloqiy-ma'naviy profilaktika — yoshlarning turli salbiy ijtimoiy ta'sirlardan himoyalanihi uchun tarbiyaviy faoliyatni muntazam olib borish. Qadimiy ayol obrazlari — ona, ustoz, ma'rifatparvar ayol timsollari — tarbiyaviy jarayonda ibrat sifatida qo'llanilganda yuqori samaradorlik beradi. Mahalla va jamoat institutlari qizlar tarbiyasida oila bilan bir qatorda faol ishtirok etishi zarur.

Xulosa qilib aytganda qizlar tarbiyasining Sharq tarixidagi tajribasi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Uni ilmiy asoslangan holda qayta ishlash, zamonaviy pedagogik tizimlarga moslashtirish, milliy qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirish orqali biz kelajakda ham barkamol avlodni tarbiyalaymiz. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlik, madaniy uzluksizlik va milliy taraqqiyotning kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova, N. (2019). Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida ayol tarbiyasi masalalari. "Pedagogika va psixologiya" ilmiy jurnali, №2, 45–52-betlar.
2. Karimov, S., & Jo'rayev, M. (2020). Jadidchilik davrida qizlar ta'limi: tarixiy tahlil. "O'zbekiston tarixi" ilmiy jurnali, №4, 87–95-betlar.
3. Yusupova, D. (2021). Oila va mahalla tizimida qizlar tarbiyasining zamonaviy yondashuvlari. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" ilmiy jurnali, №3, 112–118-betlar.
4. Qodirova, Z. (2022). Sharq an'analarida qizlar tarbiyasi va uning modernizatsiya jarayonlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 134–146-betlar.
5. UNESCO. (2023). Gender tengligi va ta'lim imkoniyatlari: Markaziy Osiyo tajribasi. Parij: UNESCO nashriyoti, 59–67-betlar.





6. Tursunov, O. (2019). Sharqda ayol tarbiyasining pedagogik asoslari: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar. "Milliy ta'lim" jurnali, №1, 77–85-betlar.

7. Murodova, L. (2020). Qizlarning ma'naviy tarbiyasida oilaning roli va zamonaviy muammolar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi nashriyoti, 98–105-betlar.

8. Islomova, N. (2021). Sharq madaniyatida qizlar tarbiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil. "Pedagogika va psixologiya" ilmiy jurnali, №4, 54–63-betlar.

